BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOTATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## 2023- YIL YANVAR

## (DASTLABKI MA’LUMOT)



Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz

## Buxoro viloyati
## sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 379,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 93,9 % ni tashkil etdi.









**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar oyida 692,1 ming so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur'ati 92,4 % ni ko‘rsatmoqda.








(2023- yil yanvar oyida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib 1 254,8 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,0 % ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd.so‘m




Ulushi, % da




FHI, % da



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini tashkil etdi.








2023- yil yanvar oyida

*O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*



**Oltingugurt**

| | |
|---|---|
| 2023- yil | 49,7 |
| 2022- yil | 177,7 |
| 2021- yil | 82,4 |

**Gips**



| | |
|---|---|
| 2023- yil | 6,0 m. |
| 2022- yil | 0,0 |
| 2021- yil | 0,0 |

**Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ulash xizmatlari**

| | |
|---|---|
| 2023- yil | 121,2 |
| 2022- yil | 111,1 |
| 2021- yil | 79,4 |

## Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oltingugurt, t. | 183,0 | 91,0 | - 182,0 |
| Gips, t. | 6 709,0 | 40 000,0 | 33 291,0 |
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ulash xizmatlari, mln. s‘om | 10 400,5 | 12 600,5 | 2 200,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat

(2023- yil yanvar oyida)

2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 254,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,0 % ini tashkil etdi.








## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 1,0 % (1,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 36,5 % (36,5 %) va quyi texnologiyalisi – 62,5 % (62,4 %)ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,5 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 112,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 32,1 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 78,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,8 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi –100,3 %) ni tashkil etdi.

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 1,9 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 39,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,2 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 82,4 %) ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda 106,2 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar oyga nisbatan 24,4 % ga ko‘paygan), 551,3 ming litr aroq mahsulotlari (28,9 % ga ko‘paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari | 2022 yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Mazut, ming t. | 7,4 | 3,6 | - 3,8 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t | 55,0 | 308,0 | - 253,0 |
| Paxta tolasi, t | 14 037,0 | 8 509,0 | -5 528,0 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 6 812,0 | 2 010,4 | - 4 801,6 |
| Paxta chigiti, t. | 19 926,0 | 13 417,0 | - 6 509,0 |

## Metallurgiya sanoati






2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 110,1 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 127,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 94,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 60,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 25,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlari ishlab chiqarish






2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa, 100,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 328,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,02 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 40,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 123,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 21,8 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi 443,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallar, qoq‘oz va qoq‘oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish



2022- yilning yanvar oyidan yakunlariga ko‘ra, mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 115,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 %, fizik hajm indeksi 83,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 11,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish






2022- yilning yanvar oyidan yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 79,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 82,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 16,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish






2022- yilning yanvar oyidan yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 27,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 70,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 29,5 % ni, fizik hajm indeksi 112,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 406,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish






2022- yilning yanvar oyidan yakunlariga ko‘ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va ask ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,4 %.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 65,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ini) tashkil etdi.








## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish bo‘yicha o‘sish sur’ati 101,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha esa 102,3 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 0,6 | 0,6 | - |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 120,5 | 123,3 | 2,8 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**



Elektroenergiya

Issiqlik energiyasi








## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.








# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 39,4 % ga ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 23,7 % ga pasayishi kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln.so‘m | 1 245,0 | 1 735,0 | 490,0 |
| Axlat o‘ralarni, tindirgich-larni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar mln.so‘m | 41,4 | 31,6 | - 9,8 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**



Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar




Axlat o‘ralarni, tindirgich-larni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar mln.so‘m





## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyatda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yanvar oyida 478,2 mlrd so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,5 % ni tashkil etdi. tumani (16,4 %) ni, Kogon tumani (11,5 %) ni, Jondor tumani (9,5 %) ni tashkil etdi.







Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 239,9 ming so‘m bo‘ldi.

yanvar
ming. so‘m

2023- yil 239,9

2022- yil 329,9

2021- yil 260,2



yanvar-
o‘sish sur'ati

2023- yil 97,9 %

2022- yil 113,7 %

2021- yil 108,7 %

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 478,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar oyi mos davriga nisbatan 99,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 34,7 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari



60,2 %

2023- yil yanvar

29,0 %

2022- yil yanvar



2023- yilning yanvar oyida viloyatida 287,9 mlrd so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 33,9 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo‘yicha o‘rtacha iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda Qorovulbozor tumani (2,8 m.), Peshku tumani (156,3 %), Kogon tumani (140,8 %) va Olot tumani (131,1 %) korxonalari tomonidan yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi.

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 60,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 39,8 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida iste’mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 29,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 71,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish sur’ati 133,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o‘sish sur’ati 71,7 % ni tashkil etdi.



39,8 %

2023- yil yanvar

71,0 %

2022- yil yanvar



## Viloyatda nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining jami hajmi 190,3 mlrd.so‘m bo‘lib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur'ati 71,7 % ni tashkil etdi.







Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



## Viloyat bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilish hajmi 287,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.

yanvar
mlrd. so‘m

| | |
|---|---|
| 2023- yil | 287,9 |
| 2022- yil | 187,8 |
| 2021- yil | 170,0 |

60,2 %

Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar
o‘sish sur’ati

| | |
|---|---|
| 2022- yil | 133,9 % |
| 2021- yil | 107,5 % |
| 2020- yil | 107,2 % |

## Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2023- yil 1- fevral holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 4 982 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 44 tasi yangi tashkil etilgankorxonalar sirasiga kiradi.

Jami yangi tashkil etilgan

**44 dona**

2023- yil yanvar

**45 dona**

2022- yil yanvar

**84 dona**

2021- yil yanvar



Jami faoliyat yuritayotgan

**4 982 dona**

2023- yil yanvar

**4 873 dona**

2022- yil yanvar

**4 432 dona**

2021- yil yanvar

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2023- yil yanvar oyida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 512,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,2 % ni tashkil etdi.






